

---

## AMALGA OSHIRILAYOTGAN BARCHA ISLOHOTLAR INSON QADRI VA MANFAATI UCHUN

\* Rishton tuman hokimi o'rinbosarlari, korxonalar va tashkilot rahbarlari ishtirokida "Dahbed", "Chinigaron" va "Dorulomon" mahallalarida sayyor qabuli bo'lib o'tdi.

✿ Sayyor qabulga kelgan fuqarolarning aksariyati ishga joylashish, kredit olish, tibbiy xizmat, davolanish, uy-joyini ta'mirlash, yo'l, ichimlik suvi kabi masalalar bo'yicha murojaat qilishdi. Fuqarolarning har bir murojaatlarini ijobiy yechimi topishi uchun, shu joyning o'zida reja tuzildi, muddat belgilandi va tegishlilik bo'yicha mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda chora-tadbirlar belgilab olindi.

□ Aksariyat murojaatlarda aholini qiynab kelayotgan muammolar tilga olinayotgani bugun odamlarimizning ongu tafakkuri va dunyoqarashi o'zgarib borayotganini ko'rsatmoqda.

???? Mazkur sayyor qabul ham yurtimizda amalga oshirilayotgan "Inson qadri uchun" tamoyilini aholining davlatdan rozi holda yashashini ta'minlash va har bir fuqaroning muammolarini ijobiy hal etish yo'lidagi yana bir qadam bo'ldi. Binobarin, barcha say'-harakatlar odamlarni rozi qilish yo'lida olib borilmoqda.

2022-12-12 15:02:55